

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

60220500 – Falsafa bakalavriat ta'lif yo'naliishing

MALAKA TALABI

Toshkent — 2024



ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2024-yil «25» 06 dagi 218 - sonli buyrug‘i bilan

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy meyoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	Umumiy tavsifi	4
1.1.	Qo‘llanish sohasi	4
1.1.1.	Malaka talabining qo‘llanishi	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	4
1.2.3.	Kasbiy faoliyatlarining turlari.....	4
1.2.4.	Kasbiy vazifalar.....	5
2.	Kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar.....	7
3.	Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.....	8
4.	Fanlar katalogining tuzulishi.....	8
5.	Bibliografik ma’lumotlar.....	10
	Kelishuv varag’i.....	12

1. Umumiy tavsifi

60220500 – Falsafa ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular tayyorlash kunduzgi, kechki, sirtqi va masofaviy ta’lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta’lim shakllari bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta’limda bakalavriat dasturining me’yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo‘llanish sohasi

1.1.1. Malaka talabining qo‘llanilishi.

Malaka talabi 60220500 – Falsafa ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular tayyorlovchi barcha oliy ta’lim muassasalarini uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

Mazkur ta’lim yo‘nalish bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas’ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim muassasaining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor - o‘qituvchilari;

ta’lim yo‘nalishining o‘quv rejasi va fan dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta’lim muassasasining talabalari;

bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta’lim muassasalarini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;

oliy ta’lim tizimini akkreditatsiyasi va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari.

“Gumanitar fanlar” ta’lim sohasidagi yo‘nalish bo‘lib, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional ta’lim muassasalarida, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy tadqiqot institutlari, arxiv va muzeylari, ilmiy va madaniy markazlar, davlat va mahalliy boshqaruv organlari, ma’naviyat va ma’rifat, milliy g‘oyani targ‘ib etish markazlari va bo‘limlari, turizm sohasida, o‘rta, o‘rta maxsus ta’limning davlat va nodavlat muassasalarida tarbiya va mafkuraviy ishlari, madaniy aloqalarni rivojlantirish, komil insonni shakllantirishga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqot, ma’naviy-ma’rifiy, tashkiliy-boshqaruv, tarjimonlik hamda konsalting faoliyati bilan bog‘liq kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

Davlat va nodavlat tashkilot, korxona va muassasalar, kompaniyalar, ishlab chiqarish birlashmalari, ijtimoiy-gumanitar yo‘nalishdagi ilmiy tadqiqot muassasalarini va tashkilotlari, ma’naviy-ma’rifiy va targ‘ibot markazlarida, axborot-resurs markazlari, nashriyotlar, ommaviy-axborot muassasalar, turli tadbirkorlik sub’ektlari tashkilotlarda o‘rta boshqaruv tizimida (mahallalar), nashriyotlarda muharrir va noshirlik ishlari, ixtisoslik sohasiga oid boshqa tashkilotlarda ma’naviy ishlari bo‘yicha xodim.

60220500 – Falsafa bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bitiruvchilar padagogik qayta tayyorlashdan o’tgan taqdirda, davlat umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, va professional ta’lim muassasalar, ta’limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan

umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o'qitish bo'yicha pedagogik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladi.

1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:

- ilmiy-tadqiqot;
- tashkiliy-boshqaruv;
- ma'naviy va ma'rifiy faoliyat;
- konsalting xizmati.

1.2.4. Kasbiy vazifalar.

60220500 – Falsafa ta'lif yo'naliishi bo'yicha Milliy malaka doirasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob'ektlari va turlariga muvofiq, bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

ilmiy tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda iqtisodiyotning dolzarb yo'naliishlari yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishda qatnashish;

respublika va xorijda chop etilgan barqaror taraqqiyot maqsadlariga erishish, ijtimoiy-ma'naniy hayot, yoshlар tarbiyasiga oid ilmiy – falsafiy axborotlarning ilmiy manbalarini o'rganish;

soha bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishda bevosita ishtirok etish;

ilmiy tadqiqot mavzusi (topshiriq) bo'yicha ilmiy-texnikaviy ma'lumotlarni yig'ish, ishlov berish, tahlil qilish va olingan ma'lumotlarni tizimlashtirishda ishtirok etish;

ilmiy-tadqiqot natijalarini va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishda ishtirok etish; gumanitar fanlar sohasidagi ilmiy tekshirish institutlari va markazlarda kichik ilmiy xodim sifatida sohaga oid falsafiy ilmiy matnlarni tahlil qilish, ularni ilmiy muloqotga olib kirish;

amaliy faoliyatda zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuter texnikasi va kommunikatsion vositlardan foydalanish;

zamonaviy taexnologik jarayonlarni qo'llash;

ilmiy asoslangan tizimlarni tavsiya etish va foydalanish;

falsafa sohasini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatda:

O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasiga asoslangan faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lish;

mediya makondagi iltimoiy jarayonlar haqidagi axborotlarni tizimli tahlil etish va ularning mohiyatini aniqlash;

boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun tashkilotning tashqi va ichki muhiti

to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash, tahlil qilish va tashkilot manfaatlari himoyasini ta'minlashga yo'nalgan qarorlar qabul qilish;

tashkilot faoliyatida konstruktiv raqobat ruhini shakllantirish, xodimlarning o'zaro kon-sensusiga asoslangan ijtimoiy muhitni yaratish;

zamonaviy axborot texnologiyalar tizimidan foydalanish bilan bo'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoring va sifatini baholash uslublari hamda mexanizmlarini yaratish, ulardan foydalanuvchilarning monitoringi va tizim faoliyati sifatini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish;

tashkilot va ularning alohida bo'linmalari tashkiliy tuzilmasini optimalallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirish va ularni boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag'batlantirishni tizimli tashkil etish;

birlamchi ishlab chiqaruvchi bug'in ishini tashkil qilish va uni boshqarish;

tashkilotning ichki hujjat aylanishi tizimini ishlab chiqish va boshqarish; tashkilotlar faoliyatining turli ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumotlar bazasini yuritish;

jamoada ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish;

tashkiliy boshqaruv faoliyatida qabul qilinadigan qarorlarni ijtimoiy iqtisodiy samaradorlik mezonlarini ishlab chiqishda hamda qarorlarning muqobil variantlarini tanlab olish va ularning ahamiyatini asoslashda ishtirok etish;

falsafa sohasini ommalashtirishga oid turli mushoiralar, ma'rifiy suhbatlar, kitobxonlar tanlovlari, festivallar tashkil etish va boshqarish;

ma'naviy targ'ibot jarayonlarini tashkil etishda resurslardan foydalanishni rejalashtirish, favqulotda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni tahlil qilish;

mehnat jarayonida jismoniy va ma'naviy xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha metodik tadbirlarni ishlab chiqish va ularni tashkil etish qobiliyatiga ega bo'lish;

ma'naviy targ'ibot jarayonlarining ijrochilarini jamoasini tashkil qilish va ular faoliyatini rag'batlantirish, fikrlar plyuralizmi (xilma-xilligi) sharoitida boshqaruv qarorini qabul qilish;

atrof-muhitni muhofaza qilish va ularning mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi bo'yicha olib boriladigan ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;

jamoada sog'lom turmush tarziga amal qilishning mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish, o'zini jismoniy chiniqtirish o'quv va ko'nikmalariga ega bo'lish;

pullik ta'lif xizmatlarini tashkil etish va amalga oshirish;

Ma'naviy-ma'rifiy faoliyatda:

ma'naviy-ma'rifiy ishlarni rejalashtirish va amaliyotga joriy etish jarayonida turkiy xalqlar falsafiy, madaniy merosini o'rganish, ularning komil inson tarbiyasiga oid g'oyalarini, aholi turli qatlamlari ongiga etkazish, ularga xalqlarning umumiylarini tarixiy makonda yashaganini etkazish va millatlararo totuvlikni mustahkamlashni targ'ib etish, xalqlarning ma'naviy-madaniy merosini asrash va saqlashning ahamiyatini o'quvchilar ongiga singdirish;

mediya makondagi kiberboulling (axborot xurujlari)ga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish va bilim bilan ularga qarshi kurash metodologiyasini egallash;

ommaviy madaniyat va kosmopolitizmning mohiyatini yoshlari ongiga singdirish, ularda milliy qadriyatlarga hurmatni shakllantirish, milliy an'analarni zamon ruhiga moslashtirish va ommalashtirishda yangi targ'ibot texnologiyalardan foydalanish;

yangi O'zbekistondagi islohotlarning mohiyatini tushunish, inson qadri g'yasining mohiyatini aholi turli qatlamlari ongiga etkazish va o'quvchilarda dahldorlik tuyg'usini shakllantirish;

korrupsiya jamiyatning ijtimoiy ma'naviy inqirozi sifatida rivojlanishining oqibatlarini bilish va ularga qarshi kurashning takomillshgan mexanizmlarini ishlab chiqish;

mahallalarda temir daftarga kiritilgan yoshlari bilan individual ma'naviy-axloqiy tarbiyyiy suhbat o'tkazish;

milliy urf-odat va marosimlarni o'tkazishda umuminsoniy qadriyatlar, mehrmuruvvat, bag'rikenglik, vatanparvarlik, sadoqat kabi yuksak insoniy fazilatlarning mohiyatini ochib berish;

Konsalting (maslahat) xizmati faoliyatda:

tashkilotning faoliyatini takomillashtirish, yangi g'oyalarning afzalligiga ishonchni oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

yo'nalihi mos mavzulardagi loyihalar, adabiyotlar, ijtimoiy tarmoqlar, elektron video va audio mahsulotlarni ekspertiza qilish va ularga munosabat bildirish;

ixtisoslikka mos mavzu bo'yicha turli xizmatlarni ko'rsatish qobiliyatiga ega bo'lish;

ixtisoslikka mos sohalar bo'yicha konsalting (maslahat) xizmatlarini ko'rsatish.

2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.

ta'lim yo'nalihi ixtisoslik fanlarni o'rganish va chuqur egallash uchun zarur bo'lgan fundamental umumkasbiy bilimlarni, amaliy ko'nikma va uquvlarni shakllantirishi; ta'lim yo'nalihi muvofiq kasb faoliyati sohalarida erishilgan assosiy yutuqlar, muammolar va ularning rivojlanish istiqbollari haqida tasavvur hosil qilishi;

me'yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish

ijodiy fikrlash, muzokaralar, uchrashuvlar, ishbilarmonlik yozishmalarini olib borish va onlayn aloqalarni amalga oshirishni bilish;

faoliyatni strategik rejalashtirish, ishni samarali tashkil etish, boshqarishning zamonaviy texnologiyalarini, xodimlar jamoasiga yetakchilik qilishni bilish;

kasbiy faoliyatda raqamli axborot texnologiyalaridan foydalanish, dasturlash texnologiyalari, mul'timediya texnologiyalari, sun'iy intellekt texnologiyalari, axborotni saqlash, yetkazish va qayta ishslash, axborot texnologiyalarining vositalari, raqamli texnologiyalardan foydalanishni bilish;

Mustaqil O'zbekistonning milliy tiklanishdan yuksalish yo'lida olib borilayotgan iqtisodiyy, ijtimoiy, ma'naviy, siosiy islohotlarning mohiyatini tushunishishi va dahldorlik tuyg'usi shakllangan bo'lishi,

yozma matnlarning ma'nosini tushunish va mantiqan izchil fikrlash va o'z fikrini ravon bayon etishi, yozma va elektron hujjatlarni xatosiz to'ldirish va rasmiylashtirish mahoratini egallashi;

dinlar tarixi, qadriyalarini va ma'rifati, O'zbekistonda faoliyat yurituvchi diniy konfessiyalar, missionerlik va prozelitizmning siyosiy va ijtimoiy xavfi, diniy fundamentalizm va radikalizm tarixi va hozirgi kundagi yo'nalichlari, zamonaviy diniy sektalar va harakatlar, dunyo hamjamiyatining ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash tajribasini bilish;

sekulyarlashuv jarayonlari, dunyoviylik va diniylik mutanosibligi, zamonaviy dunyoda diniy bag'rikenglik va dinlararo muloqotning ahamiyati, O'zbekistonda dunyoviylik va diniylik mutanosibligini bilish va tanqidiy tahlil etish;

falsafaning fan va dunyoqarashga doir mohiyati, uning madaniyatlar tizimidagi roli, jamiyat haqidagi asosiy paradigmalar, sivilizatsiya va madaniyatlar almashinuvni, tarix falsafasiga oid qarashlar evolyutsiyasini o'rganish asosida, kelajakni prognozlashtirish;

global jarayonlar va barqaror taraqqiyotning yo'nalichlari, global korruptsiya va ekologik inqirozning ijtimoiy madaniy oqibatlari, korruptsiyaga qarshi kurashishning zarurligi, yashil makon loyihamida ishtiroy etish va tashkil etish;

dunyoviy bilim va malakalarni yangilanayotgan O'zbekistondagi islohotlar jarayonida to'liq namoyon qilish, ijtimoiy va professional mas'uliyatni va jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shish;

insonning axloqiy fazilatlari- vatanparvarlik, mardlik, qahramonlik, inson xulq atvordinagi salbiy illatlar vatanfurushlik, qo'rkoqlik va xiyonat, muhabbat va nafrat, baxt va baxtsizlik, imon va imonsizlik, vijdon va vijdonsizlikning o'zaro mutanosibligi,

fugorolik jamiyatida axloqiy kamolotga erishish mezonlari, axloqiy tarbiyaning usul va vositalarini bilish;

ijtimoiy reallikning ilmiy manzarasini shakllantirish metodologiyasini egallash, ijtimoiy borliqdagi jarayonlar dinamikasiga baho berish, ijtimoiy mentalitet, fan va texnologiyalarning jamiyat taraqqiyotiga ta’sirini bilish;

elitar ta’limni egallashi va elitar madaniyatini takomillashtirish, hayotning ma’nosini bilish, faoliyat maqsadini aniqlash mahoratiga ega bo’lish;

bilish metodlari va metodologik yondashuvlaridan ilmiy, tashkilotchilik, boshqaruv faoliyatida foydalanish ko’nikmalariga ega bo’lish;

tarbiya va ta’lim mutanosibligini ta’minalash, tarbiya usul va vositalaridan kasbiy faoliyatida foydalanish, tarbiya jarayonida uztoz va shogirdning o’zaro muloqotini tizimli tashkil etish, ta’lim innovatsiyalaridan ochiq ta’lim makonida foydalanish;

xalqaro jarayonlar va munosabatlarni tahlil etish, siyosiy institutlarning faoliyatiga baho berish, siyosiy konfliktlarni o’rganish va konsensusga erishish, siyosiy makondagi axborot urushining mohiyatini bilish va unga qarshi kurash bo’yicha ilmiy bilimlar, amaliy mahorat va ko’nikmalarga ega bo’lishi kerak.

3. Amaliyotlarga qo’yiladigan talablar.

Malaka amaliyoti – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg’unlashtirish, tegishli amaliy ko’nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

Ta’lim yo’nalishi bo’yicha quyidagi amaliyotlar o’tkaziladi:

1. O’quv tanishuv amaliyoti
2. Ishlab chiqarish amaliyoti
3. Bitiruv oldi amaliyoti

4. Fanlar katalogining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O’quv fanlari, bloklar va faoliyat turlari	Umumiylukda yuzlamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Majburiy fanlar	4500	150	
1.01	RAT1104	Raqamli axborot texnologiyalari	120	4	1
1.02	JMS1104	Jismoniy madaniyat va sport	120	4	1
1.03	O’YT1204	O’zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	2
1.04	O’RT1204	O’zbek (rus) tili	120	4	2
1.05	XT1304	Xorijiy til	120	4	3
1.06	DIN1304	Dinshunoslik	120	4	3
1.07	FK1106	Falsafaga kirish	180	6	1
1.08	ET1104	Etika	120	4	1
1.09	MA1122	Mantiq	660	22	1,2,3,4
1.10	FT1132	Falsafa tarixi	960	32	1,2,3,4,5,6
1.11	ES1204	Estetika	120	4	2
1.12	OB1322	Ontologiya va bilish nazariyasi	120	4	3,4,5,6
1.13	IF1404	Ijtimoiy falsafa	180	6	4
1.14	IF1604	Falsafiy antropologiya	660	22	6

1.15	TT1404	Tizimli tahlil	180	6	4
1.16	TF1204	Ta’lim falsafasi	120	4	2
1.17	SF1306	Siyosat falsafasi	120	4	3
1.18	OF1504	Ong falsafasi	180	6	5
1.19	FF1706	Falsafa va fan metodologiyasi	180	6	7
2.00		Tanlov fanlari	1620	54	4-8
2.00		Tanlov fanlari	1620	54	4-8

Kvalifikatsiya: Faylasuf, tahlilchi, tarbiya va mafkuraviy ishlar xodimi

Falsafa (Sharq falsafasi va madaniyati) bo‘yicha majburiy fanlar			900	34	1-7
1.14	SF1117-808	Sharq falsafasi va madaniyati tarixi	240	8	7-8
1.15	XSh111-842	Xorijiy sharq tili	1260	26	1-7
2.00		Tanlov fanlari	1620	54	4-8
2.00		Tanlov fanlari	1620	54	4-8
<i>Kvalifikatsiya: Faylasuf – sharqshunos, tarbiya va mafkuraviy ishlar xodimi</i>					
		Jami	6390	210	
		Malaka amaliyoti	840	28	2,4,6,8
		BMI (Yakuniy davlat attestatsiyasi)	240	8	8
		Jami	1080	36	
		HAMMASI	7200	240	

Tayanch so'zlar:

Kasbiy faoliyat turi, ta'lim yo'naliishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va fan dasturlari, profil, o'qib-o'rganish natijalari, tarmoqlar va sohalar, malaka talablari, bakalavriatning o'quv jarayoni, sifatni baholash va nazorat, mustaqil ta'lim, ishlab chiqarish, kompetensiya, tashkiliy-boshqaruv faoliyati, malakaviy amaliyot, bitiruv malakaviy ishi, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlari bloki, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, kredit-modul tizimi, xizmat ko'rsatish, ijodiy fikrlash, loyihalash, ilmiy tadqiqot jarayoni.

Uardsq nemiidana o'sishni alpin dijital
universiteti

Habibov Otar, 1982-yilning 12-avgusti

2022-yilning 15-avgusti

Respublikani Ma'muratiga ta'lim tizimi
bekorlari uchun shaxsiy
Hujjatu qoligachka usulini


Burcham Otar, 1982-yilning 12-avgusti

2022-yilning 15-avgusti

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQILGAN:

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Rektor  I.Madjidov

2024 yil «19» 06



O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni
rivojlantirish tadqiqotlari markazi

Direktor  M.Boltabayev

2024 yil «19» 06

M.O.

Toshkent davlat sharqshunoslik
universiteti

Rektor  G.Rixsiyeva

2024 yil




M.O.

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat
universiteti

Rektor  A.Reymov

2024 yil «19» 06



Respublika Ma'naviyat va Ma'rifat
markazi huzuridagi
Ijtimoiy tadqiqotlar instituti

Direktor  O. Davlatov

2024 yil «19» 06



Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti
60220500 – Falsafa ta'lim yo'naliishi bo'yicha malaka talablari va o'quv
rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta'lim muassasalari va asosiy kadrlar
iste'molchilari o'rtasida

KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent sh.

" " 2024 yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – Toshkent Davlat Sharqshunoslik universiteti rektori G.Rixsiyeva, Qoraqalpoq davlat universiteti rektori A.Reymov O'zbekiston Milliy universiteti rektori I.U.Madjidov birgalikda O'zMUDA ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriat ta'lim yo'naliishing malaka talablari va o'quv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

60220500 – Falsafa ta'lim yo'naliishi malaka talablari va o'quv rejani ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 5847-sun farmoni, 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-2909-sun, 2017 yil 27 iyuldagagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151-sun, 2018 yil 5 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-sun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyundagi "2019/2020 o'quv yilida O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risida"gi PQ-4359-sun Qarorlariga hamda oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me'yoriy-huquqiy xujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o'quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste'molchilari tomonidan qo'yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta'lim yo'naliishi bo'yicha malaka talablari o'quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjalarni yaratish uchun asos hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o'quv rejani o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

O'zbekiston Milliy universiteti
rektori, professor

I.Madjidov

Toshkent davlat sharqshunoslik
universiteti rektori

G.Rixsiyeva

Berdaq nomidagi Qoraqalpog'iston
davlat universiteti rektori

A.Reymov



Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida
ishlab chiqilgan 60220500 – Falsafa ta'lim yo'nalihi bo'yicha oliy ma'lumotli
bakalavrular tayyorlashning tayyorlarlik darajasi va zaruriy bilimlar mazmuniga
qo'yiladigan talablar yangilangan
malaka talablari va o'quv rejasiga
T A Q R I Z

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'pisida"gi Qonunini ijposini ta'minlash, ta'lim mazmunini tubdan isloh qilish, tayyorlanayotgan kadrlar sifatining respublikada amalga oshipilayotgan chuqur iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar talablapiga, shuningdek ta'lim, fan, texnika va texnologiyalar rivojlanishining ilg'or jahon darajasiga muvofiqligini ta'minlashda bevosita malaka talablarining mazmuniga bog'liq.

60220500 – Falsafa ta'lim yo'nalihsining malaka talablari va katalog O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 5847-son farmoni, 2018 yil 5 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-sonli qarori xamda O'zR OO'MTV ning 2018 yil 6 iyundagi "Oliy ta'lim yo'nalihsilarining malaka talablari va o'quv rejalarini ishlab chiqish to'g'risida"gi №87-02-1322-sonli buyrug'i, oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa normativ huquqiy hujjatlarga hamda horij tajribalariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Bakalavriat ta'lim yo'nalihi o'quv rejasini kredit-modul tizimi asosida shakllantirilgan va kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablarga muvofiq, talabalar majburiy va tanlov fanlarini o'zlashtirishi, amaliyotlarni o'tishi va natijada kasbiy faoliyatida zarur bilim, ko'nikma va malaka kompetensiyalarini egallashini ta'minlovchi mazmunda ishlab chiqilgan.

60220500 – Falsafa ta'lim yo'nalihi bo'yicha tuzilgan yangilangan malaka talablari va fanlar katalogi xorij tajribasi asosida uyg'unlashtirilgan, ta'lim oluvchilapda chuqup bilim, mustaqil fikplash, yuksak kasb-kop malakasi shakllanishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan, bakalavrularning fanlarni o'zlashtirish jarayonida tajriba, ko'nikmalar xamda tasavvurga ega bo'lish, qo'yilgan talablarni bilishi va ulardan samarali foydalana olish kabilar to'g'ri ko'rsatilgan. Malaka talablari va o'quv rejasida fan oldida turgan dolzarb muammolarni o'rganish va ularni ijobjiy yechimini izlab topishda zamonaviy uslub va texnologiyalarga, dala va laboratoriya amaliyotlariga, seminar mashg'ulotlariga, mustaqil bilim olish hamda olingen ma'lumotlarni tahlil kilishga keng o'rinn berilgan.

Malaka talablarini ishlab chiqishda ta'limni demokratlashtirish, insonparvarlashtirish, globallashuv sharoitida o'ziga xoslikni saqlash va jahon ta'lim makoniga integrallashtirish tamoyilla-riga amal qilingan. Malaka talablaridagi umumkasbiy fanlar tarkibi, ularning o'zaro nisbatlari bitiruvchilarning tanlagan mutaxassisligi bo'yicha olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olish ko'nikmasini

kuchaytirish nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqilgan. Fanlar uchun belgilangan vaq byudjetining nazariy, amaliy, tajriba, mustaqil ishlar uchun taqsimoti bitiruvchining nazariy bilimlarini mustahkamlash va ularni amaliyotda muvaffaqiyat bilan qo'llash ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

Malaka talablari va o'quv rejasini ishlab chiqishda turdosh oliy ta'limgardagi muassasalaining talab va takliflari inobatga olingan.

Xulosa qilib aytganda, 60220500 – Falsafa ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlik tayyorlash uchun yangilangan malaka talablari va o‘quv katalogi oliy ta’lim o‘quv jarayonini jahon andozalari darajasiga yetkazishga yo‘naltirilgan bo‘lib, har tomonlama yetuk mutaxassislar tayyorlashga oid masalalarni o‘z ichiga olgan va sifatli tuzilgan. O‘zbekiston Respublikasi davlat standaptlash tizimi qoidalari talablapiri qoniqtipadi hamda uni tasdiqlashni taklif qilaman.

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti rektori

G. Sh. Rixsiveva



Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida
ishlab chiqilgan 60220500 – Falsafa ta'lim yo'nalihi bo'yicha oliy ma'lumotli
bakalavrlar tayyorlashning tayyorlarlik darajasi va zaruriy bilimlar mazmuniga
qo'yiladigan talablar yangilangan
malaka talablari va o'quv rejasiga
T A Q R I Z

M.Ulug'bek nomidagi O'zMU da 60220500 – Falsafa (yo'nalihsalar bo'yicha) ta'lim yo'nalihi malaka talablarini ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Devonining 2018 yil 3 apreldagi 5002-sonli topshirig'i va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 5 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-sonli qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyundagi "2019–2023 yillarda Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida talab yuqori bo'lgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4358-sonli qarorlari bilan tasdiqlangan tamoyillarga amal qilingan.

60220500 – Falsafa ta'lim yo'nalihi bo'yicha tuzilgan yangilangan malaka talablari va o'quv rejasida xorij tajribasi asosida uyg'unlashtirilgan, ta'lim oluvchilapda chuqup bilim, mustaqil fikplash, yuksak kasb-kop malakasi shakllanishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan, bakalavr larning fanlarni o'zlashtirish jarayonida tajriba, ko'nikmalar xamda tasavvurga ega bo'lish, qo'yilgan talablarni bilishi va ulardan samarali foydalana olish kabilar to'g'ri ko'rsatilgan. Malaka talablari va o'quv rejasida fan oldida turgan dolzarb muammolarni o'rganish va ularni ijobjiy yechimini izlab topishda zamonaviy uslub va texnologiyalarga, dala va laboratoriya amaliyotlariga, seminar mashg'ulotlariga, mustaqil bilim olish hamda olingen ma'lumotlarni tahlil kilishga keng o'rinn berilgan.

Malaka talablarini ishlab chiqishda ta'limni demokratlashtirish, insonparvarlashtirish, globallashuv sharoitida o'ziga xoslikni saqlash va jahon ta'lim makoniga integrallashtirish tamoyilla-riga amal qilingan. Malaka talablaridagi bloklar bo'yicha fanlar tarkibi, ularning o'zaro nisbatlari bitiruvchilarning tanlagan mutaxassisligi bo'yicha olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olish ko'nikmasini kuchaytirish nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqilgan. Fanlar uchun belgilangan vaqt byudjetining nazariy, amaliy, tajriba, mustaqil ishlar uchun taqsimoti bitiruvchining nazariy bilimlarini mustahkamlash va ularni amaliyotda muvaffaqiyat bilan qo'llash ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

Malaka talablari va o'quv rejasini ishlab chiqishda turdosh oliy ta'lim muassasalaining talab va takliflari inobatga olingen.

Xulosa qilib aytganda, 60220500 – Falsafa ta'lim yo'nalihi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash uchun tuzilgan yangilangan malaka talablari va o'quv rejasini oliy ta'lim o'quv jarayonini jahon andozalari darajasiga yetkazishga yo'naltirilgan bo'lib, har tomonlama yetuk mutaxassislar tayyorlashga oid masalalarni o'z ichiga olgan va sifatli tuzilgan,

O'zbekiston Respublikasi davlat standaptlash tizimi qoidalapni talablapini qoniqtipadi xamda uni tasdiqlashni taklif qilaman.

Berdaq nomidagi Qoraqalpog'iston
davlat universiteti rektori



A. Reymov